

## Boshqaruvda Xotin-Qizlar Ishtirokini Kengaytirishda Pedagogik Nazariy Qarashlar

**Yuldasheva Feruzaxon Imomali qizi**

Toshkent davlat pedagogika universiteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

**Annotatsiya:** gender tengligi sohasidagi asosiy muammolarni yanada samarali hal etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: gender masalalarini hal etishga qaratilgan institutlarning samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratish; gender siyosatini amalga oshirishni barcha darajalarda, jumladan, hududiy, milliy va sektoral muvofiqlashtirishning aniq tizimini shakllantirish; ayollarning iqtisodiy qaramligini va zaifligini yumshatish uchun oilaviy yuklarni teng taqsimlashga intilish; imkoniyatlarini kengaytirish, sohalarida gender tengligiga erishish kabilar shular jumlasidandir.

**Tayanch so'zlar:** Gender tenglik, yangi siyosiy tizim, huquqiy ta'lim, ijtimoiylashuv.

Ma'lumki, har qanday madaniyat gender neytral emas. Gender tushunchasi madaniyatga singib ketgan, boshqacha qilib aytganda, madaniyat - bu qadriyatlar va me'yorlar, munosabat va stereotiplar to'plami, ijtimoiy tarkibga kiritilgan, jinsga qarab belgilanadigan xatti-harakatlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar majmui. Tamaddun evolyutsiyasi kontekstida muayyan etnik-ijtimoiy tafakkur ko'p asrlar mobaynida shakllanadi. Tarixda turli davrlarda ayollarga nisbatan zulm ko'rinishlari mavjud bo'lgan. Arabiston yarim orolida qiz bolalarni tiriklayin ko'mish kabi johiliyat davrining shafqatsiz odatlari hukm surgan. Sharq qadriyatlarida ayol doimo erkak kishiga do'st, yor, oqila, mehribon, oilaviy tinchlikning rahnamosi sifatida ulug'langan. Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy: "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", deya ta'kidlaydi. Tarixiy qo'shtirnoq ichidagi bazi qarashlar shuni ko'rsatadiki bevosita ayollarning jamiyatda yetarlicha o'ringa ega bo'la olmayotganligi ilm fanga yangi muammolarni olib kelishiga sabab bo'ladi. Xususan Gender atamasining vujudga kelishi buni dunyo miqyosida yechimi oxirlanmagan muammo sifatida ham fanga kiritilishini ko'rishimiz mumkin.

**Gender lotincha** genus (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani (5) o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan. Keyinchalik 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller (6) jamiyatda ijtimoiy jinsning o'z-o'zini anglash tushunchalari to'g'risidagi ma'ruzasi orqali gender terminini ilm ahliga taqdim etdi hamda jinsni biologik va madaniy turlarga bo'lib o'rganishni taklif qildi. R.Stoller, biologik jinsni (inglizcha sex) biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender), ya'ni genderni ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalarida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Shuningdek, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli (4) ham "Jins, gender va jamiyat" nomli ilmiy ishida bu terminni izohlab o'tgan. Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik

farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir (6). Biroq odamlar o'rtasida yana bir muhim – biologik farqlardan tashqari ijtimoiy rollar, har xil faoliyat turlari, xatti-harakat va psixologik xarakteristika jihatidan ham bo'linish mavjud. Jinsdan farqli o'laroq, gender – psixologik, madaniy va ijtimoiy vositalar bilan shakllanadi. Bu esa Gender terminining fanga kiritilishi shuni anglashga yordam beradi. 1995-yilda “Tinchlik, taraqqiyot va tenglik” shiori ostida Pekin shahrida o'tkazilgan Butunjahon xotin-qizlarining konferensiyasida mamlakatimiz xotin-qizlari vakillari ishtirok etib, xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasi platformasi (dastur) ga qo'shildi. Xotin-qizlar teng huquqliligi va gender masalalarining iqtisodiy hayot bilan uzviy bog'liqligini BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil iyun oyidagi “Ayollar 2000: Gender tenglik, rivojlanish va jahon XXI asrda” maxsus sessiyasiga tayyorgarlik chog'ida Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot doirasida ham isbotlab berilgan. Davr nuqtai nazaridan qaralganda, gender tengligi, gender masalalari tushunchalari Markaziy Osiyo mintaqasida rivojlanishning yangi bosqichini vujudga keltirdi. Yillar davomida olib borilgan izlanishlar bu turdagi rivojlanish amaliyotining tahlillari xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonlaridan chetda qoladi, va hatto ishtirok etgan taqdirda ham rivojlanish loyihalari natijalari erkaklar va xotinqizlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi degan xulosalarni keltirib chiqardi. Shu tariqa ushbu mintaqada xotin-qizlarning rivojlanishda ishtirokiga yondashuvni qayta ko'rib chiqish va rivojlanish loyihalarini xotin-qizlar va bolalar ahvoriga salbiy ta'sirini ang'ib o'tish zarurati vujudga keldi. Qarama-qarshi jins vakillari o'rtasidagi bu kabi tafovutlar davlatning ichki siyosati, islohotlar ko'lamini, ulardan kutilayotgan maqsad hamda millatning etnik xususiyatlarga bog'liq jihatlarni ham qamrab olishiga ko'ra Markaziy Osiyo mintaqasi ajralib turadigan hududga aylandi. Mintaqaning Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari “kelin o'g'irlash” amaliyoti hanuzgacha saqlanib qolgan. Tojikiston hukumati tomonidan ayollarga kiyinish tartibi belgilab berilganligi va Xotinqizlar va oila ishlari qo'mitasi tomonidan kiyinish tartibi qo'llanmasi chop etilganligi hozirgi vaqtda ham ayollar masalalari bilan jiddiy muammolar mintaqaning asosiy hal qilinishi kerak bo'lgan vazifasi ekanligini ko'rsatadi. Rivojlantirish loyihalarining erkaklar, xotin-qizlar, o'smirlar, qariyalar va boshqalarga tabaqalashtirilgan ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mintaqaholisi rivojlanishining ijobiy va salbiy omillarini batafsil ko'rib chiqish, tengsizlik manbalarini aniqlash va rivojlanishdagi teng bo'lmagan tarzda ishtirok etishga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish usullarini o'rganish asosiy vazifa etib belgilandi. Ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar borki, ular aynan sodir bo'layotgan jarayonlarni qay yo'sinda borishi va istiqboldagi rejalarini belgilab beradi. Bular: mintaqaholisiga xos xarakter-xususiyatlar bo'lib, tarixan shakllangan etnik qadriyatlar, an'analar hamda din omili ta'sirida vujudga keladi. Yer yuzidagi har bir mintaqada ushbu xususiyatlar mavjud bo'lib, ular bir-birini takrorlamaydi. Xususan, Yevropa qitasi aholisining dunyoqarashi, mentaliteti sharq mamlakatlaridan tubdan farq qiladi. Bu kabi farqlar mintaqalar kesimida yanada xilmaxillikni kasb etadi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida sodir bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonlari mintaqaholisi xususiyatlari, tarixiy jarayonlarni qay tarzda sodir bo'lganligini o'zida aks etib turadi. Mintaqaga xos omillar sirasiga: an'anaviylik, qadriyatlarga sodiqlik, sharqona mentalitet, oila, nikoh, oilaviy munosabatlarni boshqaruvda ustunlik qiluvchi erkakning roli, unga jamiyatdagi asosiy qatlam sifatida qarash kabi xususiyatlar kiradi. Ushbu munosabatlarni yanada sayqallanib, hozirgi qiyofasi shakllangunga qadar sodir bo'lgan jarayonlar, bosqinlar, mustamlakachilik tuzimini ta'siri mavjud. Sovet ittifoqi parchalangach, ungacha shakllanib bo'lgan ijtimoiy tuzum, hayot tarzida katta burilish sodir bo'ldi. Jamiyat ijtimoiy hayotida bir qancha muammolar vujudga keldi. Xotin-qizlar masalasi hamda ularning jamiyatda tutgan o'rni bir qancha munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, muammolar quyidagi sohalarida yaqqol namoyon bo'ldi: - Siyosiy huquqlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari; - Alohida shaxs sifatida va oila a'zosi sifatidagi ayollarning yuridik huquqlari; - Xotin-qizlarning ta'lim olish va o'qitishning turli shakllaridan, jumladan kasbhunar ta'limidan foydalanishlari; - Mehnat faoliyatlari Mintaqaholisi xususan, O'zbekiston hukumatiga ham tegishli ushbu masalalar davlat siyosatining keyingi yo'nalishini belgilashda asosiy omil bo'ldi.

O'zbekistondagi yangi siyosiy tizimda shaxs va davlatning o'zaro munosabatlariga ustuvorlik berilib, ular bir-biri bilan huquq va majburiyatlar vositasida chambarchas bog'liq. Ijtimoiy siyosiy

va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirishning asosiy mexanizmi bu demokratiya, O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha aholining huquqlarini kafolatlariga qaratilgan. Mamlakatda inson huquqlari jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan an‘analari, urf-odatlarini, ma‘naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etildi. Jamiyat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, birinchi navbatda inson manfaatlari, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo‘lib qolishiga e‘tibor qaratildi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilani mustahkamlash, ayniqsa, nikohning barqaror bo‘lishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida ota-onaning huquq va majburiyatlari nafaqat O‘zbekiston Respublikasi balki, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari siyosatining o‘ziga xos jihati sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlarini, jamiyat hayotidagi o‘rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o‘rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin: - jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish; - uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to‘siq bo‘lmasligi uchun masofadan turib ishlash faoliyatini yo‘lga qo‘yish; - nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishga imkon yaratish;

- huquqiy ta‘limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo‘lga qo‘yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o‘rinlari ustida yangicha yondashuv;
- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarni kelishuv asosida amalga oshirish, erkak va ayol muammoli vaziyatlarda tenglik prinsipini o‘zaro hurmat va bir-birini tushinish tarzida amalga oshirish; - nasl, farzand tarbiyasi masalalarida tenglikka rioya qilgan holda, ayolning jamiyatdagi o‘rnini topishda, kasb-hunar masalalarida qo‘llab-quvvatlash; - nohaqlikka uchragan, zo‘ravonlik qurboniga aylangan xotin-qizlar bilan davlat, jamiyat hamkorligini yanada kuchaytirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning tizimli mexanizmini ishlab chiqish kabilardir.

Xulosa qilib aytganda bizning fikrimizcha, gender tenglikka erishish nafaqat demokratik qadriyatlardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon miqyosida orttirilgan tajriba shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar mavjud davlatlarda aholi turmush farovonligi va ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori darajada bo‘lib, islohotlar muvaffaqiyati ta‘minlanadi. Umuman olganda, O‘zbekistonda gender sohasidagi o‘zgarishlarning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mamlakatda gender siyosatini har jihatdan amalga oshirishda davlat organlari va xotin-qizlar tashkilotlari birgalikda harakat qilib kelmoqda. Respublikamizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda rasmiyatchilikdan aniq sa‘y-harakatlarga o‘tilgaligi, ya‘ni xotin-qizlarning jamiyat hayotida, ta‘limda shaxsiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilganligi, xotin-qizlar faoliyatlarini amalga oshirishida va jamiyat hayotini monitoring qilishning barcha bosqichlarida samarali ishtirok eta boshlaganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
2. Gender i kultura. – Dushanbe: Aziya-plyus, 1999. – 96 s.
3. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. – Moskva, 1985. – S. 142-159.
4. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/lecturers.htm#blohina>

5. Money, John. (1952). Hermaphroditism: An Inquiry into the Nature of a Human Paradox. Thesis (Ph.D.), Harvard University press.
6. Stoller R. J. Sex and Gender: The Development of Masculinity and Femininity. – United Kingdom: Routledge, 1994. – 400 p.
7. Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovaniye gendera. Sb. “Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax”. – Moskva, 2001. – S. 49.
8. Jamoldinova O.R. Ta’lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ILMiy-METODIK JURNALI. 2022-yil, 1-son. B. 17- 25. <https://doicode.ru/doifile/regdoi/2022/06/doicode-2022.055.pdf>.